

AXSIKENT TARIXINI RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA O'QITISH METODIKASI : MUAMMO VA YECHIMLAR

Mallabayev Botir Raximjanovich

Tarix fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Namangan davlat pedagogika instituti

E-mail: Active_boy_botir@mail.ru

+99890 112 00 29

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21059458>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti – Axsikent tarixini oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar vositasida o'qitish metodikasi ko'rib chiqiladi. Raqamli ta'lim muhitida Axsikent tarixini o'qitish imkoniyatlari, muammolari hamda amaliy yechimlar taklif etilgan. Maqolada virtual muzeylar, 3D rekonstruksiylar, sun'iy intellekt interaktiv xaritalar va elektron manbalardan foydalanishning o'quv samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Axsikent, raqamli ta'lim, o'qitish metodikasi, arxeologik yodgorlik, Farg'ona vodiysi, interaktiv ta'lim, virtual muzey. sun'iy intellekt, 3D rekonstruksiylar,

Аннотация: В статье рассматривается методика преподавания истории древней столицы Ферганской долины — Ахсикента — в высших учебных заведениях с использованием цифровых технологий. Представлены возможности, проблемы и практические решения, касающиеся преподавания истории Ахсикента в цифровой образовательной среде. Обосновывается роль виртуальных музеев, 3D-реконструкций, интерактивных карт и электронных ресурсов в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: Ахсикент, цифровое образование, методика преподавания, археологический памятник, Ферганская долина, интерактивное обучение, виртуальный музей, искусственный интеллект, 3D-реконструкции.

Annotation: This article examines the methodology of teaching the history of the ancient capital of the Fergana Valley - Akhsikent - in higher education institutions using digital technologies. The possibilities, problems and practical solutions for teaching the history of Akhsikent in a digital educational environment are proposed. The article substantiates the role of using virtual museums, 3D reconstructions, interactive maps and electronic resources in increasing the effectiveness of teaching.

Keywords: Akhsikent, digital education, teaching methodology, archaeological monument, Fergana Valley, interactive education, virtual museum, AI (artificial intelligence) 3D reconstructions

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va raqamlashtirish borasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6097-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi raqamli vositalarni o'qitish jarayoniga keng qo'llashni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu hujjatlar pedagoglarga milliy tarix va madaniy merosni zamonaviy usullar bilan o'qitishda yangi mas'uliyatlar yuklaydi.

Farg'ona vodiysining bebaho tarixi va madaniy merosi talabalar ongida chuqur milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning asosiy manbayi hisoblanadi. Ushbu merosning eng muhim qirrasini Axsikent shahri tashkil etadi. O'rta asr tarixnavislarining tabiri bilan aytganda "Farg'ona

shaharlarining onasi” deb ta’riflangan Axsikent yodgorligi Farg’ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik bo’lib, raqamli ta’lim sharoitida axsikent tarixini o’qitish tarix fani o’qituvchilari oldiga yangi, zamonaviy talablarni qo’ymoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Axsikent tarixini an’anaviy o’qitish usullari talabalar qiziqishini to’liq qondira olmaydi: ko’rgazmali materiallarning cheklanganligi va raqamli resurslarning yetarli darajada qo’llanilmasligi – bular o’quv jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu maqolada aks ettirilgan tadqiqot mazkur muammolarga amaliy yechimlarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish va tavsiyalar beriladi.

Tarix fanini o’qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Internet, multimedia, interaktiv ta’lim platformalari, sun’iy intellekt va boshqa raqamli vositalar talabalarning tarixiy bilimlarini yanada chuqurlashtirish hamda ularni qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Ayniqsa, tarixni o’qitishda ushbu yondashuv sezilarli darajada samaradorlik ko’rsatadi, zero talabalar raqamli texnologiyalar orqali o’z ona yurtlarining qadimiy shaharlarini virtual sharoitda "kezib chiqishlari", artefaktlarni ko’rishlari va tadqiq etishlari mumkin bo’ladi.

Zamonaviy pedagogika fanida konstruktivistik o’qitish nazariyasi (J.Piaget, L.Vygotsky) raqamli muhitda talabaning faol ishtirokini ta’minlovchi ta’lim modellarini asoslab beradi. Ushbu nazariyaga ko’ra, bilim uzatilmaydi, balki o’rganuvchi tomonidan quriladi. Raqamli resurslar esa ana shu qurilish jarayonini jadallashtirishning eng zamonaviy vositasi hisoblanadi. Axsikent tarixi kabi murakkab va ko’p qatlamli mavzularda talaba virtual rekonstruksiya, interaktiv xaritalar va 3D-modellar va sun’iy intellekt orqali tarixiy shaharni "jonli" his etib, bilimlarni mustaqil ravishda tizimlashtirishi imkoniyatiga ega bo’ladi.

Raqamli ta’lim sharoitida Axsikent tarixini o’qitishda bir qancha muammolar mavjud bo’lib, ularni quyidagi yo’nalishlarda ko’rib chiqish lozim.

Birinchidan, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari masalasi. Pedagoglarni raqamli vositalar bilan erkin ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun muntazam malaka oshirish kurslari, vebinar va master-klasslar tashkil etilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi) hamda Oliy ta'lim vazirliklari ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga qaratilgan "Raqamli pedagogika" loyihalari va o'quv modullari bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, Vizual va raqamli kontentning yetishmasligi. Axsikent kabi yirik arxeologik yodgorliklar haqidagi mavjud ma'lumotlarning aksariyati matnli ma'lumotlar. Virtual darslarda 3D rekonstruksiylar, interaktiv xaritalar va VR (virtual reallik) texnologiyalarining kamligi o'quvchilarda obidaning haqiqiy qiyofasi haqida to'liq tasavvur hosil bo'lishini qiyinlashtiradi.

Axsikent tarixini raqamli ta'lim sharoitida o'qitishda quyidagi zamonaviy metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Birinchi, Axsikent arxeologik kompleksining 3D-rekonstruksiylasini yaratish va uni o'quv jarayoniga joriy etish tarixiy ob'ektning vizual idrokini kuchaytiradi. Shaharning ark, shahriston va rabot qismlarini, jome' masjidini, mudofaa devorlarini virtual sharoitda ko'rsatish talabalarning abstrakt tarixiy bilimlarni aniq vizual tasavvurlarga aylantirish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv ayniqsa "Axsikent shahri qurilishi va me'moriy tuzilmasi" kabi mavzularni o'rganishda beqiyos samara beradi.

Ikkinchi, Geografik axborot tizimlari (GIS) tarixiy ob'ektlarni kenglik va makonda o'rganishning kuchli vositasidir. Google Earth Pro, GIS kabi platformalar yordamida Axsikentning Buyuk Ipak yo'lidagi o'rnini, shaharning turli davrlardagi kengayishi dinamikasini, suv manbalari va savdo yo'llarining tarqalishini interaktiv tarzda ko'rsatish mumkin. Talabalar mustaqil ravishda arxeologik qazilmalar joyini belgilash, tarixiy xaritalar bilan taqqoslash va qatlam-qatlam tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Uchinchi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Xorazm Ma'mun Akademiyasi va xalqaro ilmiy arxivlarda Axsikentga oid ko'plab ilmiy maqolalar, arxeologik hisobotlar va tarixiy hujjatlar raqamli formatda mavjud. Talabalarni ResearchGate, Ziyonet va milliy elektron kutubxona platformalari bilan ishlashga o'rgatish ularda mustaqil ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa arab va fors tillaridagi o'rta asr manbalarining (Ibn Havqal, al-Muqaddasi, Mahmud Koshg'ariy asarlari) raqamli nusxalari bilan tanishish talabalarning mavzuga oid manbashunoslik bilimlarini yanada oshiradi.

To'rtinchi, Tarix darslarida Axsikentning qadimgi ko'rinishi, uning Ark va mudofaa devorlarini SI asosidagi tasvir yaratuvchi neyron tarmoqlar (masalan, Midjourney, DALL-E) yordamida qayta tiklab, o'quvchilarga 3D formatda namoyish etish mumkin. Bu esa o'z navbatida qadimiy Axsikent yodgorligiga vizualizatsiya va virtual sayohat qilish imkonini beradi. Shuningdek, Talabalarni Axsikent tarixi bo'yicha sun'iy intellekt yordamida qisqa video hujjatli filmlar, elektron taqdimotlar va infografikalar yaratishga jalb qilish – bu nafaqat raqamli kompetensiyalarni, balki tarixiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. "Raqamli tarixchi" loyihasi doirasida talabalar guruh bo'lib arxeologik topilmalar, xarobalar, muzey eksponatlari haqidagi qisqa videolarni tayyorlab, ularni umumiy ta'lim platformasiga joylashtiradilar. Bunday yondashuv o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi hamkorlik asosidagi ijodiy jarayonga aylantiradi.

Beshinchi Kahoot!, Quizlet, Mentimeter kabi interaktiv platformalar orqali Axsikent tarixiga oid viktorinalar, musobaqali testlar va onlayn bahslar o'tkazish talabalarning o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Kahoot!, Quizlet va Mentimeter — bu ta'lim jarayonini jonlantirish, o'quvchilar faolligini oshirish va real vaqt rejimida qayta aloqa o'rnatish uchun mo'ljallangan zamonaviy interaktiv onlayn platforma hisoblanadi. Shuningdek, qoidaga asoslangan rolli o'yinlar (tarixiy maslahat yig'inlari, arxeologik ekspeditsiya simulyatsiyalari) talabalarni

tarixiy voqealarning ishtirokchisiga aylantirib, kritik fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Axsikent – bu nafaqat Farg'ona vodiysining, balki butun O'rta Osiyo sivilizatsiyasining noyob merosi bo'lib, uning tarixi milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va madaniy g'ururning muhim manbayidir. Raqamli ta'lim sharoitida ushbu bebaho merosni o'qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugunning eng dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Axsikent tarixini raqamli vositalar – 3D-rekonstruksiylar, interaktiv xaritalar, sun'iy intellekt, elektron arxivlar, multimedia kontentlar va gamifikatsiya usullari yordamida o'qitish an'anaviy usullar bilan taqqoslaganda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar mavzu bo'yicha bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirib, mustaqil tarixiy tahlil ko'nikmalarini egallaydilar.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: Axsikent arxeologiya kompleksining to'liq 3D-raqamli nusxasini yaratish; o'zbek tilida Axsikent tarixiga bag'ishlangan maxsus elektron darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish; virtual ekskursiyalar va raqamli muzey portali ishga tushirish; hamda o'qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo'yicha ixtisoslashtirilgan malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Axsikent tarixi raqamli makonda yangi hayotini boshlamoqda. Bu jarayonda yonga pedagoglar, arxeologlar, texnologlar va tegishli davlat institutlari o'zaro hamkorligi orqali Farg'ona vodiysining buyuk qadimiy poytaxti bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham ham jonli, madaniy merosga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6097-son Farmoni – Toshkent, 2020.

2. Ahrorov I. Axsikat shahri tarixidan. – Toshkent: Fan, 1984. – 152 b.
3. Qozoqov T. Axsikent arxeologik yodgorligi: tadqiqot va muhofaza masalalari // Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi ilmiy yig'majildi. – 2022. – №3. – B. 45–62.
4. Abduqodirov A. Zamonaviy ta'limda texnologiyalarni qo'llash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020. – 128 b.
5. Sabirova D.A. va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Raqamli ta'lim markazi, 2023. – 196 b.
6. Axsikent arxeologiya parki // ZarNews. – 2023. – 14-oktabr. – URL: <https://zarnews.uz>
7. Karimova D. Interfaol ta'lim metodlari va ularning tarix fanida qo'llanilishi.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 88 b.
8. Mustaqillik yillarida Namangan viloyati arxeologik tadqiqotlari // Scientific Journal. – 2023. – URL: <https://scientific-jl.org>